

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ABDULLAYEVA BUFOTIMA TURSUNALI QIZI

**ARTEMISIA ABSINTHIUM VA PINUS SYLVESTRIS EKSTRAKTLARI
ASOSIDAGI ANTIOKSIDANTLARNI QIYMA GO'SHT
MAHSULOTLARIDA QO'LLASH TEXNOLOGIYASI**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish,
saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan - 2023

UDK 664.8.035.74,76; 664.8.037.53

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Abdullayeva Bufotima Tursunali qizi

Artemisia absinthium va *Pinus sylvestris* ekstraktlari asosidagi antioksidantlarni
qiyma go'sht mahsulotlarida qo'llash texnologiyasi.....3

Абдуллаева Буфотима Турсунали қизи

Технология применения антиоксидантов на основе экстрактов *Artemisia*
absinthium и *Pinus sylvestris* в рубленых мясных полуфабрикатах.....21

Abdullayeva Bufotima

Technology for the use of antioxidants based on extracts of *Artemisia absinthium* and
Pinus sylvestris in minced semi-finished meat products.....39

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2023.T.66.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

ABDULLAYEVA BUFOTIMA TURSUNALI QIZI

**ARTEMISIA ABSINTHIUM VA PINUS SYLVESTRIS EKSTRAKTLARI
ASOSIDAGI ANTIOKSIDANTLARNI QIYMA GO'SHT
MAHSULOTLARIDA QO'LLASH TEXNOLOGIYASI**

**02.00.17 - Qishloq xo'jalik va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish,
saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2022.4.PhD/T3257 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nammti.uz) va “ZiyoNet” axborot ta’lim tarmog‘iga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurmanov Suvonqul Erxanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Sagdullayeva Dilafruz Saidakbarovna
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Choriyev Abdusattor Jurayevich
texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

Farg‘ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2023.T.66.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “20” sentabr soat 10⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (69) 225-10-07, faks: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz, Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 3- bino, 2-qavat, 313- xona, Ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (552-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko‘chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 225-10-07.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “6” sentabr kuni tarqatildi.
(2023-yil 6-sentabrdagi № 1-raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A. Xudayberdiyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash raisi, t.f.d., professor

O.T. Mallaboyev
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
kengash kotibi, PhD

A.M. Xurmamatov
Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy
Kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida muzlatilgan yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarining sifatini saqlab qolish, ularning biologik samaradorligini oshirish va yaroqlilik muddatini uzaytirish uchun antioksidant ta'sirga ega bo'lgan tabiiy qo'shimchalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish oziq-ovqat sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda ishlab chiqariladigan go'sht mahsulotlari assortimenti keng bo'lib, an'anaga ko'ra, aholining farovonlik darajasi iste'mol qilinadigan go'sht miqdori bilan baholanadi. Yarim tayyor go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish oziq-ovqat tarmog'ining tez rivojlanayotgan yo'nalishi hisoblanib, ularning aksariyati muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlardir. Aholini ulardan foydalanishi qulay va kundalik turmushda keng qo'llanilishi sababli, ushbu turdagi mahsulotlarning saqlanish muddatini uzaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda sog'lom ovqatlanish sohasidagi davlat siyosatiga muvofiq aholining turli ijtimoiy guruhlari sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga hissa qo'shadigan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish bo'yicha muayyan ilmiy hamda amaliy natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza, sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish..."¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari sifatini saqlab qolish, biologik samaradorligini oshirish va yaroqlilik muddatini uzaytirish uchun antioksidant ta'sirga ega bo'lgan tabiiy qo'shimchalardan foydalanish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2019 yil 29 iyuldagi PQ-4406-sonli «Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2019 yil 23 oktyabrdagi PQ-5853-sonli «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi, 2018 yil 19 yanvardagi PQ-3484-sonli «Oziq-ovqat tarmog'ini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018 yil 16 yanvardagi PQ-5303-sonli «Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmon va Qarorlari hamda mazkur soha faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 «2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi» Farmoni

texnologiyalarni rivojlantirishning V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kungacha xorijda go‘sh t mahsulotlari tayyorlash texnologiyasida tabiiy antioksidantlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish borasida Makkarti T.L, Nam K.S., Tang S.Z., Brever M.S., Lisitsin A.B., Semenova A.A., Nasonova V.V., Krishtafovich V.I., Jebeleva I.A., Bazarnova Yu.G., Kasyanov G.I., Latin N.N., Plotnikov Ye.Ye., Glazova G.V., Juchkov A.A., Tolkunova N.N., Mashenseva N.G., Xorolskiy V.V., Mitaseva L.F., Semenischeva A.I., Gurinovich G.V., Potipayeva N.N., Alexina L.V. va boshqa olimlar samarali ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishgan.

Respublikamizda esa oziq-ovqat mahsulotlari, xususan o‘simlik yog‘i, moy va go‘sh mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish borasidagi keng ko‘lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari Dodayev Q.O., Ikromov T.X., Qo‘chqorov O‘.R., Fatxullayev A., To‘xtayev Sh.Q., Serkayev K.P., Abduraximov S.A., Majidov Q.X., Sabirova N.N., Ochilov A.A., Yo‘lchiyev A.B. va boshqa olimlar tomonidan olib borilgan.

Ular tomonidan oziq-ovqat xomashyolarini qayta ishlash texnologiyalarini nazariy asoslari rivojlantirilgan, mahalliy xom ashyolardan foydalanib yangi turdagi mahsulotlar tayyorlash uslublari yaratilgan, mahsulot sifatini oshirish va iste‘mol xavfsizligini ta‘minlash, texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish kabi dolzarb yo‘nalishlarda bajarilgan tadqiqot ishlari natijalari amaliyotga keng joriy etilgan.

Ammo bugungi kungacha yarim tayyor va tayyor mahsulotlarni saqlash, shu jumladan go‘sh mahsulotlarini muzlatib uzoq muddatli saqlash paytida lipidlarning oksidlanish jarayonlarini oldini olish va shu maqsadda antioksidant ta‘sirga ega mahalliy tabiiy qo‘shimchalardan foydalanishga oid izlanishlar yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FZ-2017101413 - “Kondensirlangan gidroksil guruh tutgan birikmalarni asetilen bilan reaksiyalarining tadqiqi, olingan moddalarni qo‘llanilishi va xossalari” (2018-2019 yy.) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qiyma go‘sh yarim tayyor mahsuloti sifati va barqarorligini oshirish uchun uning lipidli fraksiyasiga antioksidant xususiyatiga ega bo‘lgan o‘simlik ekstraktlarining ta‘sirini aniqlash va ularni oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda qo‘llash texnologiyalarini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda antioksidant xususiyatiga ega o‘simlik ekstraktlaridan foydalanilishiga oid ilmiy, texnik va patent ma‘lumotlarini tahlil qilish hamda tizimlashtirish;

antioksidant xossaga ega bo‘lgan ekstraktlarni tanlash, uning go‘sh lipidlari bilan o‘zaro ta‘sirini asoslash va amalda tasdiqlash;

sovutilgan va muzlatilgan qiyma go‘sh yarim tayyor mahsulotlarini saqlash davomida uning lipidlaridagi gidrolizlanish hamda oksidlanish jarayonlarining

kechishiga artemisia absinthium (erman) va pinus sylvestris (qarag'ay ninabargi) ekstraktlarining ta'sirini o'rganish;

qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarining fizik-kimyoviy hamda organoleptik ko'rsatkichlariga erman va qarag'ay ninabargi ekstraktlarining ta'sir darajasini aniqlash;

qiymlangan yarim tayyor go'sht mahsulotlari tarkibidagi lipidlarni barqarorlashtirish uchun, gidrolitik va zanjirli oksidlanish jarayonlari kechishini oldini olish maqsadida, tabiiy ekstraktlar qo'shish me'yorlarini asoslash;

tayyor mahsulotning sifat ko'rsatkichlari va xavfsizligini baholash, uning saqlanish muddatini aniqlash, tabiiy ekstraktlarni texnologik jarayonlarda qo'llashga oid texnik hujjatlarni ishlab chiqish va tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari (chuchvara va kotletlar), qarag'ay ninabargi va erman o'simligi ekstraktlari olingan.

Tadqiqotning predmetini - qarag'ay ninabargi va erman o'simligining suvli va spirtli ekstraktlarining antioksidantlik xossalarini aniqlash, chuchvara va kotlet yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyalari hamda qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotining yaroqlilik muddatini uzaytirish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotini bajarishda ekstraktlarni quyultirish, qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari xossalarini aniqlashning umumqabul qilingan fizik-kimyoviy, maxsus va organoleptik usullari, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX), xromatomass spektrometriya, eksperimentlarni rejalashtirish va natijalarni matematik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

flavonoidlar, organik kislotalar va fenol birikmalari tutgan o'simlik ekstraktlaridan muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarishda antioksidant sifatida foydalanish mumkinligi nazariy jihatdan asoslangan;

qarag'ay ninabargi va erman ekstraktlarining mahsulotlardagi go'sht qiymasi va hayvon yog'larining gidrolitik va oksidlanish jarayonlariga fizik-kimyoviy ta'siri aniqlangan, ularning aktioksidantlik xossalari o'rganilgan va qiyma go'sht mahsulotlariga ekstraktlarni qo'shish miqdorlari asoslangan;

antioksidant ta'sirli mazkur ekstraktlarning qiyma go'sht mahsulotlarida kechadigan fizik-kimyoviy va mikrobiologik jarayonlarga ta'siri dinamikasi aniqlangan;

antioksidlovchi samaraga ega o'simlik ekstraktlari qo'shilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarining ozuqaviy qiymati va xavfsizlik ko'rsatkichlari aniqlangan;

tayyorlangan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari - chuchvara va kotletlarning xavfsizligi SanQvaM talablari asosidagi mikrobiologik ko'rsatkichlar bo'yicha belgilangan, erman va qarag'ay ninabargi ekstraktlari esa Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) tasnifiga muvofiq toksik bo'lmagan birikmalarga (V sinf) mansub ekanligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

lipidlarni barqarorlashtirish, gidrolitik va zanjirli oksidlanish jarayonlarini to'xtatish va qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarining yaroqlilik muddatini uzaytirish maqsadida ularga qo'shiladigan tabiiy ekstraktlarning me'yorlari aniqlangan;

antioksidlovchi samaraga ega o'simlik ekstraktlari qo'shilgan qiyma go'shtli yarim tayyor mahsulotlarining ozuqaviy qiymati, organoleptik, fizik-kimyoviy va xavfsizlik ko'rsatkichlari aniqlangan;

tabiiy ekstraktlar qo'shish yo'li bilan yaroqlilik muddati uzaytirilgan "Erman" va "Sosna" chuchvaralari hamda "Totli" kotletlarini ishlab chiqarish bo'yicha texnologik yo'riqnoma ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy natijalarni muallifning eksperimental tadqiqotlari natijalari va adabiyotlarda keltirilgan tajribaviy ma'lumotlar bilan o'zaro mosligi hamda tadqiqot ishlarida spektrofotometriya, defenil pekril gidrozil (DFPG) usuli, xromato-mass spektrometriya, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YSSX) usullaridan foydalanilgani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hayvon yog'larining gidrolitik oksidlanish jarayonlariga aktioksidantlik xossali tabiiy ekstraktlarning ta'sirini o'rganish asosida muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lipidlari barqarorlashtirilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari tayyorlash resepturalari tuzilganligi, texnologik rejimlarning ratsional chegaralarining aniqlanganligi va yangi turdagi mahsulot ishlab chiqarish reglamenti ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Artemisia absinthium va *Pinus sylvestris* ekstraktlari asosidagi antioksidantlarni qiyma go'sht mahsulotlarida qo'llash texnologiyasi bo'yicha olingan natijalar asosida:

Artemisia absinthium (erman) o'simligi ekstrakti qo'shilgan va muzlatib saqlanadigan yarim tayyor kotlet mahsulotlarini ishlab chiqarish Namangan shahridagi "Oydinhonim savdo servis" MCHJ da amaliyotga joriy etilgan. ("O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi"ning 2022 yil 22 noyabrdagi 22-104/11-22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada korxonada ishlab chiqarilgan muzlatilgan yarim tayyor "Totli" kotletlarining saqlash va realizatsiya qilish muddatini 210 kungacha uzaytirish imkonini bergan;

tavsiya etilgan texnologik yo'riqnomaga muvofiq *Pinus sylvestris* (qarag'ay ninabargi) va *Artemisia absinthium* (erman) ekstraktlari qo'shilgan va muzlatilgan yarim tayyor "Sosna" va "Erman" chuchvara mahsulotlari olish texnologiyasi "Oydinhonim savdo servis" MCHJda ishlab chiqarishga joriy etilgan ("O'zbekiston Oziq-ovqat sanoati uyushmasi" ning 2022 yil 22 noyabrdagi 22-104/11-22-sonli ma'lumotnomasi). Natijada mazkur texnologiya asosida tayyorlangan chuchvara mahsulotlarining saqlash va realizatsiya qilish muddatlarini uzaytirish hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola: 6 ta xorijiy va 2 ta respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY QISMI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishiga muvofiqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot ob'yekti, predmeti va usullari tavsiflangan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi asoslangan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda go'shtdan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning hozirgi holati”** deb nomlangan I bobida respublikamizda go'shtdan yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning hozirgi holati, go'sht yarim tayyor mahsulotlarining tavsifi, ularning sifati va xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar, lipidlarning gidrolizlanishi, oksidlanib buzilishi, qiyma go'sht mahsulotlarida lipidlarni barqarorlashtirish maqsadida qo'llaniladigan tabiiy antioksidantlar va ularning qo'shimchalari haqida ilmiy-texnik adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilingan.

Tahlillar asosida yarim tayyor qiyma go'sht mahsulotlarining iste'mol uchun xavfsiz va zararsiz bo'lishi muhimligi haqida xulosa qilingan. Ushbu mahsulotlarning yaroqlilik muddati ularning tarkibiy komponentlarini o'zaro kimyoviy ta'sirlashuvidan kelib chiqib belgilash maqsadga muvofiq bo'lishi ta'kidlangan. Qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari tarkibidagi lipidlarni barqarorlashtirish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish va uni saqlash bosqichlarida tabiiy birikmalar va o'simlik ekstraktlaridan olinadigan antioksidantlarni qo'llash dolzarb vazifa ekanligi belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari va mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari, tajribalarni o'tkazish tartibi va usullari to'g'risida batafsil yoritilgan. Shuningdek, xomashyolarni tayyorlash, ularning tarkibi, ozuqaviy qiymati va sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, antioksidant faolligini tadqiq etish kabi tajriba usullari haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tajriba qismi. Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi**” deb nomlangan III bobida qiyma go’sht yarim tayyor mahsulotlarining kimyoviy tavsifi, sovutib saqlash paytida yarim tayyor mahsulotlar sifatining o’zgarishi, mahsulotlar tarkibidagi suvning faolligi, hayvon yog’i lipidlarining oksidlanib parchalanishi va uni ingibirlash, qiyma go’sht yarim tayyor mahsulotlaridagi lipidlarni barqarorlashtirish uchun tabiiy antioksidantlarni tanlash va ulardan foydalanish, mol yog’i namunasida ekstraktlarning antioksidantlik xossasini o’rganish, qarag’ay ninabargi ekstrakti qo’shishning samarali miqdorini aniqlash, erman va qarag’ay ninabargi ekstraktlarining antioksidantlik faolligini qiyma go’sht yarim tayyor mahsulotlarini sovutilgan va muzlatilgan holatlarda saqlash paytida ularda kechadigan gidrolitik va oksidlanish jarayonlariga ta’sirini o’rganish, sovutilgan holatda saqlangan qiyma go’sht yarim tayyor mahsulotlarining organoleptik ko’rsatkichlariga o’simlik ekstraktlaridagi antioksidant birikmalarining ta’sirini o’rganish xamda antioksidantli ekstraktlar qo’shilgan qiyma go’sht yarim tayyor mahsulotlarining biologik xavfsizligini baholash borasidagi tadqiqotlar natijalari yoritilgan.

Amalda mol yog’ining miqdoriy tarkibi birinchi navbatda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan xom ashyoning kimyoviy tarkibi bilan belgilanadi. Masalan, tajribalar mobaynida tayyorlangan yarim tayyor mahsulotlarning (kotlet va chuchvaralar) kimyoviy tarkibi 1- jadvalda keltirilgan.

1-jadval
Qiyma go’shtli yarim tayyor mahsulotlarning kimyoviy tarkibi, %

Namuna raqami	Miqdori, %				
	Suv	Oqsil	Yog’	Uglevodlar	Mineral moddalar
1	61,3	19,7	14,3	3,1	2,2
2	60,1	18,6	19,4	2,5	3,6
3	59,3	11,8	25,2	2,2	2,7
4	57,1	14,7	19,1	3,1	2,8

Jadvaldan ko’rinadiki, tajribaviy yarim tayyor mahsulot tarkibidagi komponentlar miqdori: suv 57-62 %, oqsil 14-25 % va yog’ 14-26 % chegaralarda o’zgarishi mumkin.

Odatda yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish maqsadida past navli xom-ashyolarda – yog’ miqdori yuqori bo’lgan go’sht bo’laklari va hayvon yog’laridan foydalaniladi. Natijada, xom ashyo tarkibidagi yog’ to’qimalarining miqdori ortadi va mahsulot nisbatan yog’li bo’ladi.

Hayvon yog’larida to’yingan yog’ kislotalari ustun bo’lsada, go’sht va yog’da tabiiy antioksidantlarning yo’qligi, go’shtdagi gem pigmentlarining mavjudligi yarim tayyor mahsulotlar tarkibidagi yog’larni kimyoviy jihatdan beqarorlashuviga olib keladi.

Tajribalarda sovutilgan (4 ± 2 °C) va muzlatilgan (minus 18 °C dan yuqori bo’lmagan) holatda saqlash paytida kotletlar sifatini o’rganish natijasida ular tarkibidagi uchuvchan yog’ kislotalarining gidrolitik va oksidlanish jarayonlari

kislota, peroksid, tiobarbitur sonlarining o'zgarishi bilan intensiv tarzda kechishi aniqlangan (2-jadval).

2-jadval

Go'shtli yarim tayyor mahsulotlarda lipidlarning gidrolitik va oksidlanib buzilishi dinamikasi (saqlash harorati va muddatiga ko'ra)

Ko'rsatkichlar	Saqlash harorati, °C			
	sovutilgan, 4±2°C		muzlatilgan, minus 18 °C dan yuqori bo'lmagan	
	1-kun	4-kun	1-kun	200-kun
Kislota soni, 1 g yog'ga mg KOH	2,53	3,41	2,45	4,10
Peroksid soni, 1 kg yog' uchun mmol faol kislorod	0,36	5,61	0	52,3
Tiobarbiturat soni, optik zichlik birligida	0,17	0,33	0,12	0,48
Uchuvchan yog' kislotalari, 25 g mahsulot uchun ml 0,2 n NaOH	0,58	0,73	0,52	1,28

Tajriba natijalari past haroratlar ta'sirida muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlarining to'qima sharbatida tuzlar konsentratsiyasining ortishi, mikroob hujayralari qobig'ini muz kristallari bilan mexanik parchalanishi va buning natijasida mikroorganizmlar umumiy sonining kamayishini ko'rsatdi. Bundan xulosa qilish mumkinki, saqlashning barqaror harorat rejimida (minus 18 °C dan yuqori bo'lmagan) muzlatilgan yarim tayyor mahsulotlarda lipid komponentida gidrolitik va oksidlanish jarayonlari ustunlik qiladi. Tajribalarda kislota sonining o'sishi dastlabki qiymat bilan solishtirganda 68,8 % ni, tiobarbiturat soni - 126,5 % va uchuvchan yog' kislotalarning miqdori - 108 % ni tashkil etdi.

Ishda olti turdagi o'simlik ekstraktlarini - erman (lot. *Artemisia absinthium*), qarag'ay kurtagi va ninabargining suvli ekstraktlari; qarag'ay ninabargi va kurtagining spirtli ekstraktlari; ermaning xloroformli ekstrakti) barqaror erkin radikal 2,2-difenil-1-pikrilgidrazilga (DFPG) nisbatan antiradikal faolligi (ARF) o'rganildi.

Antioksidantlar turlicha ta'sir mexanizmiga ega bo'lishi mumkinligi sababli ularning faolligini o'rganishda turlicha uslublarni qo'llash tavsiya etiladi. Ishda ekstraktlar tarkibidagi antioksidantlarning ta'sir mexanizmlari antiradikal faolligi DFPG erkin radikaliga nisbatan baholandi (3-jadval).

**DFPG konsentratsiyasini 50 % ga kamaytirish vaqti (t_{50}) va
50 % ga ingibirlovchi konsentratsiya qiymatlari (IC_{50})
(o'rganilayotgan ekstraktlar bilan reaksiyaga kirishganda)**

Ekstraktlar raqami	O'simlik ekstraktlari turlari	IC_{50} , mkl	t_{50} , sekund 50 mkl moddada
1	Erman ekstrakti (xloformli)	-	-
2	Qarag'ay kurtagi (spirtli)	$8,1 \pm 1,6$	$455 \pm 15,0$
3	Qarag'ay kurtagi (suvli)	$12,1 \pm 1,3$	$72 \pm 4,0$
4	Erman (suvli)	$35 \pm 0,8$ (suyultirilgan)	$38 \pm 6,0$
5	Qarag'ay ninabargi (spirtli)	$45,2 \pm 1,1$ (suyultirilgan)	$60 \pm 4,3$
6	Qarag'ay ninabargi (suvli)	$7,5 \pm 1,0$	$235 \pm 5,1$
7 (nazorat)	askorbin kislotasi	$11,9 \pm 1,4$ -	$98 \pm 4,0$ -

Tajriba natijalaridan ma'lum bo'lishicha, 4 va 5-sonli ekstraktlar namunalari erkin radikallarni so'ndirish uchun yuqori faollikka ega. 1, 2, 3, 6 va 7 (nazorat) - raqamli namunalarning ARF ko'rsatkichlari avvalgi namunalarga nisbatan kam.


Antiradikal faollikni miqdoriy baholash uchun barqaror bo'lgan 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG) radikalining dastlabki konsentratsiyasini 50 % ga kamaytirish uchun o'rganilayotgan preparatlarga zarur bo'lgan vaqt t_{50} parametridan foydalanildi. DFPGni o'rganilayotgan ekstraktlar bilan 20 °C haroratda reaksiyaga kirishganda t_{50} ko'rsatkichi 2- raqamli namuna uchun $455 \pm 15,0$ sekund, 4- namuna uchun $38 \pm 6,0$ sekund (100 marta suyultirilgan), 5- namuna uchun - $60 \pm 4,3$ sekund (100 marta suyultirilgan), 7- sonli nazorat eritmasi (askorbin kislotasi) uchun esa $98 \pm 4,0$ sekundni tashkil etdi.

Ekstraktlarni o'rganish jarayonida olingan eksperimental natijalar tahlili 4- raqamli ekstrakt namunasi boshqa namunalalar bilan solishtirilganda erkin radikal DFPG ga nisbatan eng yuqori antiradikal faollikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Tajribalarda qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarning lipidli fraksiyasiga ekstraktlarning antioksidantlik ta'siri samaradorligi ham sinovdan o'tkazildi. Bunda mahsulot namunalari (mos ravishda 0,1 va 0,05% miqdorlarda qarag'ay ninabargi va erman ekstraktlari qo'shib va nazorat uchun ekstraksiz tayyorlangan) shakl berish va muzlatish bosqichlaridan so'ng, lipidlarni gidroliz va oksidlanish jarayonlarini tezlashtirish maqsadida, 4 ± 2 °C haroratda saqlandi. Namunalarning saqlanishini o'rganish va ular sifatini organoleptik baholash ishlari saqlashni boshlashdan avval va har 24 soatda, to'rt sutka davomida amalga oshirildi. Tavsiya etilgan resept bo'yicha bir vaqtning o'zida tayyorlanib muzlatilgan namunalalar 207 kun davomida minus 18 °C dan yuqori bo'lmagan haroratda saqlandi.

Muzlatilgan mahsulot namunalardagi kislota, peroksid, tiobarbiturat soni va erkin yog' kislotalari miqdorining o'zgarishi orqali gidrolitik va oksidlanish

jarayonlarini o'rganish 30 kunlik oraliq bilan 210 kun davomida amalga oshirildi (1-rasm).



1-rasm. Muzlatilgan yarim tayyor go'sht mahsulotlari namunalarining kislota, peroksid, tiobarbiturat sonlari va uchuvchan yog' kislotalari miqdorining saqlash paytida o'zgarishlari

Natijalar shuni ko'rsatadiki, minus 18 °C da saqlanganda barcha yarim tayyor go'sht mahsulotlarining muzlatilgan namunalari yuqori barqarorlikni namoyon qildi.

Antioksidantli ekstraktlar qo'shilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarining biologik xavfsizligini baholashda o'tkir toksiklik parametrlarini aniqlash imkonini beruvchi Litchfield&Wilcoxon usuli qo'llanildi. Ekstraktning o'rtacha letal miqdori (LD₅₀) va uning toksiklik klassi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Sichqonlarga berilgan erman va qarag'ay ninabargi ekstraktlarining o'tkir toksiklik ko'rsatkichlari

O'simlik ekstrakti turlari	Hayvon turi va preparatni berish usuli	Dozasi, mg/kg, ml/sichqon	Guruhda nobud bo'lgan hayvon soni/jami	LD ₁₆ -m+m mg/kg	LD ₅₀ -m+m mg/kg	LD ₈₄ -m+m mg/kg
Erman ekstrakti	sichqon, oshqozon ichiga	1860	0/5		>4650	
		2790	0/5			
		3720	0/5			
		4650	0/5			
Qarag'ay ninabargi ekstrakti	sichqon, oshqozon ichiga	1260	0/5	1800	2720	4000
		1580	0/5	-280	-740	-760
		2000	1/5	+330	+1040	+920
		2200	2/5			
Nazorat		0,5 ml	0/5		-	

4-jadvalda keltirilgan tajribaviy ma'lumotlarga asoslanib, o'rganilayotgan ekstrakt namunalari uchun LD₅₀ ko'rsatkichining o'rtacha qiymatlari hisoblab chiqildi: erman ekstrakti uchun 4650 mg/kg, qarag'ay ninabargi ekstrakti uchun esa 2720 mg/kg. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, erman va qarag'ay ninabargi ekstraktlari Iqtisodiy yordam va taraqqiyot tashkilotining (OECD) modifikatsiyalangan tasnifiga muvofiq, moddalar toksikligi bo'yicha V sinfiga mansub va ular amalda toksik bo'lmagan birikmalar hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish”** deb nomlangan IV bobida muzlatilgan qiyma go'shtli yarim tayyor mahsulotlar (kotlet va chuchvaralar) ishlab chiqarish texnologiyalari, texnologik jarayon bosqichlari ketma-ketligi va ularni amalga oshiruvchi jihozlarning takomillashtirilgan texnologik tizimlari tavsifi keltirilgan; tayyorlanadigan ushbu turdagi mahsulotlarning kimyoviy tarkibi va ozuqaviy qiymatini aniqlash uslublari yoritilgan, ularning yaroqlilik muddatlari va xavfsizligi baholangan, erman va qarag'ay ninabargi ekstraktlari qo'shib muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish bilan bog'liq texnik hujjatlarni ishlab chiqish hamda taklif etilayotgan yangi texnologiyaning ishlab chiqarish sinovi natijalari yoritilib, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda erman va qarag'ay ninabargi ekstraktlaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi hisoblari natijalari keltirilgan.

Antioksidant xossali ekstraktlar qo'shilgan jarayoni muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarining takomillashtirilgan prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra texnologik jarayon quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi: muzlatilgan go'shtni qabul qilish, uni muzdan tushirish va kesib bo'laklarga ajratish, maydalash, qiyma go'sht uchun yordamchi ingrediyentlarni tayyorlash (shu jumladan, oqsil-yog' emulsiyasini tayyorlash, ziravorlar qo'shish, teksturlangan soya oqsilini gidratlash), qiyma va xamir tayyorlash, yarim tayyor mahsulotlarni qoliplash, muzlatish, qadoqlash va markalash (2-rasm).

Mazkur muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasi oziq-ovqat korxonalarining mavjud texnologik jihozlari tizimida ham amalga oshirilishi mumkin (3 va 4- rasmlar).

O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida antioksidant fitoekstraktlari qo'shib qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlarini tayyorlash reseptlari taklif etildi (5-jadval). Bunda tayyorlangan mahsulotlar quyidagicha nomlandi: “Totli” kotletlari (erman ekstrakti asosida), “Erman” (erman ekstrakti asosida) va “Sosna” (qarag'ay ninabargi ekstrakti asosida).


**Qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari tayyorlash resepti
(100 kg qiyma tayyorlash uchun)**

Xomashyo nomi	Xomashyo miqdori va mahsulot turi			
	“Erman” chuchvarasi	“Sosna” chuchvarasi	“Klassik” chuchvarasi	“Totli” kotleti
Yog‘li go‘sh	22,5	20	22	53
Hayvon yog‘i	8	10	8,5	5
Suv	11,5	11,5	11,5	23
Izolirlangan soya oqsili	1	1	1	2
To‘qimali soya oqsili	3	3	3	6
Qoq non (suxari)	2,5	2,5	2,5	5
Piyoz	3,2	3,65	3,25	3,65
Tuz	1,5	1,5	1,5	1,5
Yanchilgan murch	0,3	0,3	0,3	0,3
Natriy glutamat (Ye621)	0,2	0,2	0,2	0,2
Fosfatlar (Ye450/Ye451)	0,3	0,3	0,3	0,3
Erman ekstrakti	0,05	0	0	0,05
Qarag‘ay ninabargi ekstrakti	0	0,1	0	0
Chuchvara xamiri	45,95	45,95	45,95	0
Jami	100	100	100	100

Tadqiqotlar natijalari asosida erman va qarag‘ay ninabargi ekstraktlaridan foydalangan holda muzlatilgan qiyma go‘sh yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarish texnologik yo‘riqnomasi tuzildi.


Kotlet ishlab chiqarish texnologik sxemasi tavsifi. Olib borilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki tayyorlangan mahsulot namunalarining fizik-kimyoviy, organoleptik va xavfsizlik ko‘rsatkichlari SanQvaM 0366-19. ”Oziq-ovqat mahsulotlari xomashyolari va mahsulotlarning xavfsizligi sanitariya-gigeniya me‘yori qoidalari” va GOST 9959-91. “Go‘sh mahsulotlari. Organoleptik baxolashning umumiy shartlari” talablariga mos kelishi aniqlandi.

Yarim tayyor mahsulot qiymasi maydalangan go‘sh va yog‘ bo‘lakchalari, go‘shning qisman saqlanib qolgan morfologik (xujayra) tuzilishlari hamda kam miqdordagi yog‘- suv emulsiyasidan iborat sistema ko‘rinishida bo‘ldi. Qiyma tayyorlash jarayonlari oziq-ovqat korxonalarining mavjud texnologik tizimlarida amalga oshirish tavsiya etiladi (6-rasm).



2-rasm. Muzlatilgan qiyma go'sht yarim tayyor mahsulotlari ishlab chiqarishning takomillashtirilgan prinsipl texnologik sxemasi

Mazkur texnologik tizim bo'yicha sovutilgan yoki muzlatilgan xomashyo konveyer bo'ylab sig'imli idishga 1 beriladi. So'ngra xomashyo muzdan tushirish va ko'tarish uskunasiga 2 o'tkazilib, unda muzdan tushiriladi. Muzdan tushirilgan xomashyo konveyer orqali qadoqlarni ochish uskunasiga 3 o'tkaziladi. Qadog'i ochilgan xomashyolar farsh tayyorlash mashinasiga 4 uzatiladi. Bu yerda antioksidantli oqsil-yog' emulsiyasidan iborat qiyma tayyorlanadi. Tayyor bo'lgan qiyma nasos 5 vositasida shakl berish uskunasiga, keyin esa maxsulotni saqlash va realizatsiya qilish bo'limiga yuboriladi.




1 - xom ashyo uchun sig'imli idish-konveyer; 2 - muzdan tushirish jihozi; 3 - qadoqni ochish uskunasi; 4 - farsh tayyorlash mashinasi; 5 - shakl berish uskunasi (saqlashga uzatish va realizatsiya)

3-rasm. Kotlet ishlab chiqarish texnologik tizimi

Muzlatilgan chuchvara ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologik sxemasi tavsifi. Texnologik jarayonlar, oziq-ovqat korxonalarining mavjud mahsulot ishlab chiqarish texnologik tizimlarida (3-rasm), tegishli tartibda tanlangan qurilma va uskunalarda, amalga oshiriladi.

Muzlatilgan chuchvara mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun sovutilgan va muzlatilgan holatdagi xomashyo qadog'i ochilib, tashuvchi vositalar yordamida sig'imli idish-konteynerga 1 olib kelinadi. So'ngra xom ashyo muzdan tushirish qurilmasiga 2, undan esa konveyer orqali qiymalash va qorish uskunasi 3 uzatiladi. Bu yerda, oqsil-yog' emulsiyasi tayyorlash jarayonida, antioksidantli ekstrakt suv bilan birgalikda qiymaga qo'shiladi. Tayyorlangan qiyma nasos 4 orqali chuchvara tugish avtomatiga 5 uzatiladi.



1 - xom ashyo uchun sig'imli idish-konteyner; 2 - muzdan tushirish konveyeri; 3 - qiyma tayyorlash va qorish uskunasi; 4 - qiyma nasosi; 5 - chuchvara tugish avtomati; 6 - hamir qorish mashinasi; 7 - qayta yuklash moslamasi; 8 - chuchvara tashuvchi arava; 9 - parrakli transporter; 10 - qadoqlash jihozi; 11 - ventilyator; 12 - tunnelli muzlatish kamerasi; 13 - poddon; 14 - sovutgich (saqlash va realizatsiya).

4-rasm. Muzlatilgan chuchvara ishlab chiqarish tizimining takomillashtirilgan texnologik sxemasi

Chuchvara xamiri xamir qorish mashinasida 6 tayyorlanadi. Tayyor mahsulot qayta yuklash moslamasi 7 orqali chuchvara tashuvchi aravaga 8 tushiriladi, undan esa parrakli transporter 9 vositasida qadoqlash jihoziga 11 o'tkaziladi. Chuchvaralar qadoqlash uskunasiga kirishi oldidan ventilyator 10 vositasida ishchi yuzalarda namsizlantiriladi. Qadoqlangan mahsulot tunnelli muzlatish kamerasida 12 muzlatiladi va palletlash uchun poddonga 13 va kelgusida saqlash va realizatsiya qilish uchun sovutgichga 14 yuboriladi.

Ishlab chiqarish korxonasi o'tkazilgan tajribalarda tayyorlangan qiyma zichroq va ilashuvchan konsistensiyaga ega bo'lishi zaruriyati kuzatilgan. Shu sababdan, sovutilgan yoki muzdan tushirilgan go'shtdan foydalanganda holatlarda qiyma tayyorlash jarayonini sovutish tizimi va qiyma massasiga suyuq azot yoki karbonat angidrid berish moslamalari bilan butlangan zamonaviy jihozlarda amalga oshirilishi qiyma haroratini pasaytirish va mahsulot sifatini shakllantirishda alohida e'tiborga loyiq.

Qiyma tayyorlash jarayoni davomiyligini belgilash maqsadida qiymani aralashtirish vaqti 2÷5 minut oralig'ida o'zgartirilib, ushbu davrning ratsional chegarasi 3,0÷4,0 minut ekanligi aniqlandi.

Qiyma strukturasi stabilash jarayoni uni 0,5÷1,0 MPa bosim ostida presslash, zichlash va shakl berish yo'li bilan amalga oshiriladi. Qolipni farsh bilan to'ldirish paytida bosimni rostlanishi zichroq va yumshoq konsistensiyaga ega mahsulot olish hamda uning massasini nazorat qilish imkonini beradi.

Tabiiy antioksidantlar qo'shib tayyorlangan yarim tayyor mahsulotning saqlash muddati bazaviy 2 oyga nisbatan uch marotaba ko'proq bo'ladi. Bu esa korxonalarga mahsulotlarning saqlash muddatini uzaytirish va ular uchun standart yaroqlilik muddatiga ega mahsulotlarga nisbatan yuqori narxni belgilash imkonini beradi. Shunday qilib, mahsulotni kengroq narx oralig'ida sotish, uning sotuv narxini maksimal rentabelliklikdan yoki iste'molchilarning to'lov qobiliyatidan kelib chiqib belgilash imkoniyati paydo bo'ladi (6-jadval).

Belgilangan rentabellik oralig'idan kelib chiqqan holda mahsulotning o'rtacha narxi (so'm/kg) bazaviy tannarx sifatida quyidagicha belgilandi: "Totli" kotleti - 48690, "Erman" chuchvarasi - 27261 va "Sosna" chuchvarasi - 25425.

6-jadval

Mahsulot birligini sotuv bahosi va foyda hisoblari

Ko'rsatkichlar	"Totli" kotleti	"Erman" chuchvarasi	"Sosna" chuchvarasi
Mahsulot birligi uchun umumiy rejalashtirilgan xarajat (bazaviy tannarx), so'm/kg	48 690	27 261	25 425
Maqsadli foyda koeffitsiyenti (rentabellik), %:			
- quyi chegara	10	10	10
- yuqori chegara	20	20	20

Ko'rsatkichlar	“Totli” kotleti	“Erman” chuchvarasi	“Sosna” chuchvarasi
Maqsadli foyda miqdori, so‘m/kg:			
- minimal	4 869	2 726	2 543
- maksimal	9 738	5 452	5 086
Mahsulotni taxminiy narxi, so‘m/kg:			
- quyi chegara	53 559	29 987	27 968
- yuqori chegara	58 428	32 713	30 511
Sotuv narxi, so‘m/kg	55 994	31 350	29 240
Sotuv narxida sotishdan olingan foyda, so‘m/kg	7 304	4 089	3 815
Mahsulotni maksimal narxda sotishdan topiladigan qo‘shimcha foyda, so‘m/kg	2 434	1 363	1 271

Hisob-kitoblardan ko‘rinadiki, eng yuqori iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichi saqlash muddati uzaytirilgan mahsulotlarni maksimal narxda sotishda namoyon bo‘ladi (7-jadval).

7-jadval

Antioksidant xossali ekstraktlar qo‘shilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga joriy etishdan kutiladigan yillik iqtisodiy samarani baholash natijalari

Mahsulot nomi	V, t/yil	1 tonna mahsulotni sotishdan olinadigan foyda, ming so‘m	Yillik foyda, ming so‘m
“Totli” kotleti	249,6	2 434	607 526,4
“Erman” chuchvarasi	149,76	1 363	204 122,88
“Sosna” chuchvarasi	149,76	1 271	190 344,96
Jami			1 001 994

Shunday qilib, antioksidant xossali erman va qarag‘ay ninabargi tabiiy ekstraktlarini qiyma go‘shth mahsulotlari tayyorlashda qo‘llash texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etilishi «Oydinxonim savdo servis» MCHJ umumiy ovqatlanish korxonasi sharoitida 1 mlrd so‘mdan ortiq foyda olish imkonini beradi.

XULOSA

1. *Artemisia absinthium* (erman) va *pinus sylvestris* (qarag‘ay ninabargi) ekstraktlarining qiyma go‘shthli yarim tayyor mahsulotlar tayyorlashda hayvon yog‘idagi lipidlarning oksidlanib parchalanishini to‘xtatuvchi va oqsil tizimini barqarorlashtiruvchi qo‘shimcha sifatida antioksidantlik xossasi aniqlangan.

2. O‘simlik ekstraktlarining suvda eruvchan komponenti - 2,2-difenil-1-pikrilgidrazil (DFPG) molekulalarining antioksidantlar ta‘sirida qaytarilish kinetikasi spektrofotometrik o‘lchash usulida o‘rganilgan: ermaning suvli va qarag‘ay ninabargining spirtli suyultirilgan ekstraktleri samarali antioksidant xossaga (tegishliha $38 \pm 6,0$ s va $60 \pm 4,3$ s) ega ekanligi aniqlangan.

3. Erman va qarag‘ay ninabargi ekstraktlarining muzlatilgan qiyma go‘sh t mahsulotlariga nisbatan antioksidantlik samaradorligi namunalarning kislota va peroksid sonlari, uchuvchan yog‘ kislotalari miqdorini o‘zgarish dinamikasi va organoleptik baholashlar asosida aniqlangan.

4. Antioksidant xossali o‘simlik ekstraktleri qo‘shilgan yarim tayyor mahsulot minus $18\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan yuqori bo‘lmagan haroratlarda saqlanganda uning yaroqlilik muddatini 60 kundan 180 kungacha uzaytirishi aniqlangan.

5. Qarag‘ay ninabargi ekstrakti 0,1 % qo‘shilganda yarim tayyor mahsulotni saqlashning 210-kunida peroksid soni 8,0 mmol faol kislorod/kg, kislota soni 3,65 mg KOH /kg, tiobarbitar soni 0,39 mg MA/kg bo‘lishi, 0,05 % li erman ekstrakti qo‘shilganda esa peroksid soni 10,0 mmol faol kislorod/kg, kislota soni 3,69 mg KOH/kg va tiobarbitar soni 0,38 mg MA/kg bo‘lishi aniqlangan.

6. Qiyma go‘sh t yarim tayyor mahsulotleri ishlab chiqarishda antioksidant xossali erman va qarag‘ay ninabargi tabiiy ekstraktlerini qo‘llash texnologiyasi ishlab chiqilgan.

7. Tavsiya etilgan texnologiya bo‘yicha saqlash muddati uzaytirilgan qiyma go‘sh t yarim tayyor mahsulotlarining tajriba-sanoat partiyalari ishlab chiqarilgan, ularning ozuqaviylik qiymati va xavfsizlik ko‘rsatkichlari SanQvaM № 0366-19 - “Oziq-ovqat mahsulotleri xavfsizligining gigiyenik normativlari” talablariga mos kelishi aniqlangan.

8. Qarag‘ay ninabargi va erman ekstraktleri qo‘shib muzlatilgan qiyma go‘sh t mahsulotlerini ishlab chiqarish bo‘yicha texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqildi va mazkur texnologiyani umumiy ovqatlanish korxonasida joriy etilishi natijasida 550 tonna mahsulotga nisbatan iqtisodiy samaradorligi 1 mlrd so‘mdan ortiq bo‘lishi ko‘rsatilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/31.03.2023.Т.66.05 ПРИ НАМАНГАНСКОМ ИНЖЕНЕРНО-
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

НАМАНГАНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АБДУЛЛАЕВА БУФОТИМА ТУРСУНАЛИ КИЗИ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ АНТИОКСИДАНТОВ НА ОСНОВЕ
ЭКСТРАКТОВ *ARTEMISIA ABSINTHIUM* И *PINUS SYLVESTRIS* В
РУБЛЕННЫХ МЯСНЫХ ПОЛУФАБРИКАТАХ**

**02.00.17 – Технология и биотехнология обработки, хранения и переработки
сельскохозяйственных и пищевых продуктов**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.4.PhD/T3257.

Диссертация выполнена в Наманганском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.nammti.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNET» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель:

Нурманов Сувонкул Эрханович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Сагдуллаева Дилафруз Саидакбаровна
доктор технических наук,
старший научный сотрудник

Чориев Абдусаттор Жураевич
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ферганский политехнический институт

Защита состоится “20” сентябрь 2023 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/31.03.2023.T.66.05 при Наманганском инженерно-технологическом институте по адресу: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского инженерно-технологического института (зарегистрировано за № 552), Адрес: 160115, г. Наманган, ул. Касансайская, 7. Тел: (69) 225-10-07, факс: (69) 228-76-75

Автореферат диссертация разослан “6” сентябрь 2023 года.
(реестр протокола рассылки №_1_от “6” сентябрь 2023 года.

А.А. Худайбердиев
Председатель Научного совета по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

О.Т. Маллабоев
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученой степени, PhD

А.М. Хурмаматов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению
ученой степени, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотации диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире перспективы совершенствования технологии замороженных полуфабрикатов на сегодняшний день являются актуальными. Изучение возможностей использования натуральных добавок с антиоксидантным действием для сохранения качества замороженных мясных полуфабрикатов, повышения их биологической эффективности и продления сроков хранения является одним из актуальных направлений в пищевой промышленности.

Ассортимент мясных продуктов, производимых в мире, широк и традиционно уровень благосостояния населения оценивается по количеству потребляемого мяса. Производство мясных полуфабрикатов считается быстро развивающимся направлением пищевой промышленности, причем большую часть составляют замороженные полуфабрикаты. Производство мясных полуфабрикатов является наиболее динамично развивающимся направлением пищевой отрасли промышленности. В связи с тем, что населению удобно ими пользоваться и они широко используются в быту, особое внимание уделяется продлению срока годности данного вида продукции.

В нашей республике последние годы в соответствии с государственной политикой в области здорового питания достигнуты определенные научные и практические результаты по развитию производства продуктов питания, способствующих сохранению и укреплению здоровья различных социальных групп населения. В стратегии развития Нового Узбекистана определены важные задачи «углубления структурных преобразований и последовательного развития потенциала переработки сельскохозяйственной продукции, дальнейшего укрепления продовольственной безопасности страны, расширения производства экологически чистой, качественной продукции»¹. В этом аспекте научные исследования, направленные на изучение возможностей использования натуральных добавок с антиоксидантным действием для сохранения качества замороженных полуфабрикатов из фарша, повышения их биологической эффективности и продления сроков их хранения приобретает важное значение.

